

## Andijon viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari <sup>1</sup>

2025- yil yanvar-sentabr


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi
- III. Xizmat turlari bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

### I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yil yanvar-sentabr oylaridagi dastlabki ma'lumotlarga ko'ra (norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda), ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **37 032,5** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **115,4** %ga yetdi.

**Ma'lumot uchun:** 2024- yil yanvar-sentabr oylarida xizmatlar hajmi **29 302,8** mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa **112,9** %ni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi (yanvar-sentabr, mlrd so'mda)



### II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi **25,1** %, ya'ni **9 308,9** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan ushbu hududning o'sish sur'ati **119,9** %ni qayd etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulush Asaka (**4,7** %), Andijon (**4,1** %) va Shahrixon (**3,8** %) tumanlarida kuzatildi. Ulug'nor tumanida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **365,2** mlrd so'mni yoki umumiy xizmatlar hajmining **1,0** %ini tashkil etdi.

<sup>1</sup> 2024- yil yanvar-sentabr oylari hajmi va 2025- yil yanvar-sentabr oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.



**Xizmatlar sohasining hududlar kesimida asosiy ko'rsatkichlari**  
*2025- yil yanvar-sentabr*

|                              | <b>Hajmi, mlrd. so'm</b> | <b>Ulushi, % da</b> | <b>O'sish sur'ati,<br/>% da</b> |
|------------------------------|--------------------------|---------------------|---------------------------------|
| <b>Viloyat bo'yicha jami</b> | <b>37 032,5</b>          | <b>100,0</b>        | <b>115,4</b>                    |
| shahar va tumanlar:          |                          |                     |                                 |
| Andijon sh.                  | 9 308,9                  | 25,1                | 119,9                           |
| Xonobod sh.                  | 604,4                    | 1,6                 | 119,0                           |
| Oltinko'l                    | 1 064,7                  | 2,9                 | 117,4                           |
| Andijon                      | 1 527,7                  | 4,1                 | 118,1                           |
| Baliqchi                     | 1 339,5                  | 3,6                 | 115,6                           |
| Bo'ston                      | 410,4                    | 1,1                 | 118,2                           |
| Buloqboshi                   | 783,8                    | 2,1                 | 117,0                           |
| Jalaquduq                    | 1 116,0                  | 3,0                 | 119,8                           |
| Izboskan                     | 1 201,3                  | 3,2                 | 119,1                           |
| Ulug'nor                     | 365,2                    | 1,0                 | 117,3                           |
| Qo'rg'ontepa                 | 1 218,5                  | 3,3                 | 118,0                           |
| Asaka                        | 1 726,7                  | 4,7                 | 117,1                           |
| Marhamat                     | 1 092,0                  | 2,9                 | 116,9                           |
| Shahrixon                    | 1 398,8                  | 3,8                 | 117,8                           |
| Paxtaobod                    | 994,6                    | 2,7                 | 117,6                           |
| Xo'jaobod                    | 1 224,9                  | 3,3                 | 117,5                           |

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Andijon shahridan tashqari viloyatning boshqa tumanlarida, Jalaquduq (**119,8%**), Izboskan (**119,1 %**), Xonobod sh (**119,0 %**), Bo'ston (**118,2 %**), Andijon (**118,1 %**), Qo'rg'ontepa (**118,0 %**) va Shahrixon (**117,8 %**) tumanlarida kuzatildi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'ati Baliqchi tumanida qayd etildi (**115,6 %**).

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Andijon viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **10 629,0** ming so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davridagi (**8 568,1** ming so'm) ko'rsatkichga nisbatan **2 060,9** ming so'mga yoki **13,3 %**ga o'sishi qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu davrda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori ko'rsatkichi Andijon shahriga to'g'ri kelib, **18 737,7** ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan **17,1 %**ga (**3 986,0** ming so'mga) o'sdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan past ko'rsatkichi Shahrixon tumanida (**4 192,9** ming so'm) qayd etildi.

**Hududlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining  
hajmi va o'sish sur'ati ko'rsatkichlari (2025- yil yanvar-sentabr)**

|                              | <b>Hajmi,<br/>mlrd so'mda</b> | <b>O'sish sur'ati,<br/>% da</b> |
|------------------------------|-------------------------------|---------------------------------|
| <b>Viloyat bo'yicha jami</b> | <b>10 629,0</b>               | <b>113,3</b>                    |
| shahar va tumanlar:          |                               |                                 |
| Andijon sh.                  | 18 737,7                      | 117,1                           |
| Xonobod sh.                  | 12 941,6                      | 117,5                           |
| Oltinko'l                    | 5 454,2                       | 116,1                           |
| Andijon                      | 5 178,6                       | 115,5                           |
| Baliqchi                     | 6 044,6                       | 113,4                           |
| Bo'ston                      | 5 111,2                       | 115,7                           |
| Buloqboshi                   | 4 995,5                       | 115,0                           |
| Jalaquduq                    | 5 492,3                       | 118,0                           |
| Izboskan                     | 4 586,7                       | 116,9                           |
| Ulug'nor                     | 5 671,5                       | 116,6                           |
| Qo'rg'ontepa                 | 5 167,7                       | 116,0                           |
| Asaka                        | 4 738,5                       | 114,9                           |
| Marhamat                     | 5 711,2                       | 114,8                           |
| Shahrixon                    | 4 192,9                       | 115,5                           |
| Paxtaobod                    | 4 650,1                       | 115,6                           |
| Xo'jaobod                    | 9 942,4                       | 115,3                           |

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi](#)

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati](#)

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **26 568,8** mlrd so'mni yoki umumiy bozor xizmatlari hajmining **71,7** %ini tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan **11,0** %ga o'sish kuzatildi.

Hududlar kesimida Andijon shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **940,7** mlrd so'mga yoki **10,6** %ga oshib, **5 654,7** mlrd so'mga yetdi. Bu hududda kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **60,7** %ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, Baliqchi (**1 045,8** mlrd so'm), Asaka (**1 030,7** mlrd so'm) va Andijon (**925,4** mlrd so'm) tumanlarida ham yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi. Shahrixon tumanida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **880,0** mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, Ulug'nor (**224,2** mlrd so'm) va Bo'ston (**245,7** mlrd so'm) tumanlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi nisbatan past bo'lgan.

**Hududlar kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari**  
*2025- yil yanvar-sentabr*

|                              | Hajmi, mlrd. so'm | Jami hajmdagi<br>Ulushi, % da | O'sish sur'ati,<br>% da |
|------------------------------|-------------------|-------------------------------|-------------------------|
| <b>Viloyat bo'yicha jami</b> | <b>26 568, 8</b>  | <b>71,7</b>                   | <b>111,0</b>            |
| shahar va tumanlar:          |                   |                               |                         |
| Andijon sh.                  | 5 654,7           | 60,7                          | 110,6                   |
| Xonobod sh.                  | 346,6             | 57,4                          | 114,1                   |
| Oltinko'l                    | 710,8             | 66,8                          | 112,9                   |
| Andijon                      | 925,4             | 60,6                          | 112,7                   |
| Baliqchi                     | 1 045,8           | 78,1                          | 111,7                   |
| Bo'ston                      | 245,7             | 59,9                          | 112,2                   |
| Buloqboshi                   | 463,4             | 59,1                          | 111,7                   |
| Jalaquduq                    | 792,7             | 71,0                          | 118,6                   |
| Izboskan                     | 759,4             | 63,2                          | 117,9                   |
| Ulug'nor                     | 224,2             | 61,4                          | 112,0                   |
| Qo'rg'ontepa                 | 720,5             | 59,1                          | 111,4                   |
| Asaka                        | 1 030,7           | 59,7                          | 111,1                   |
| Marhamat                     | 820,4             | 75,1                          | 113,0                   |
| Shahrixon                    | 880,0             | 62,9                          | 112,4                   |
| Paxtaobod                    | 611,9             | 61,5                          | 111,3                   |
| Xo'jaobod                    | 713,6             | 58,3                          | 112,9                   |

**III. Xizmat turlari bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 27- fevraldagi PQ-78-son "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish va uning monitoringini amalga oshirish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmi o'sishiga moliyaviy xizmatlarning **51,1** %ga (jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmining mutlaq o'sishiga ta'siri **7,9** foiz bandni tashkil etdi), transport xizmatlarining **12,4** %ga (o'sishiga ta'siri **1,9** foiz bandni), savdo xizmatlarining **8,9** %ga (o'sishiga ta'siri **1,5** foiz bandni), yashash va ovqatlanish xizmatlarining **7,4** %ga (o'sishiga ta'siri **1,7** foiz bandni), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining **16,6** %ga (o'sishiga ta'siri **0,5** foiz bandni), boshqa xizmatlarning **15,5** %ga (o'sishiga ta'siri **0,5** foiz bandni), shuningdek, ijara xizmatlari **21,8** %ga va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning **7,4** %ga (o'sishiga ta'siri **0,4** foiz bandni) o'sishi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar **17,1** %ga, kompyuter va maishiy texnikani ta'mirlash xizmatlari **12,8** %ga va shaxsiy xizmatlar **10,3** %ga o'sib, umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmining **0,8** foiz bandga o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



**Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr)**

|                                                                                        | Hajmi, mlrd so'mda |                 | O'sish sur'ati,<br>%da |
|----------------------------------------------------------------------------------------|--------------------|-----------------|------------------------|
|                                                                                        | 2024- y.           | 2025- y.        |                        |
| <b>Xizmatlar – jami</b>                                                                | <b>29 302,8</b>    | <b>37 032,5</b> | <b>115,4</b>           |
| <i>shundan:</i>                                                                        |                    |                 |                        |
| aloqa va axborotlashtirish xizmatlari                                                  | 1013,1             | 1 305,4         | 116,6                  |
| moliyaviy xizmatlar                                                                    | 4048,4             | 6 226,7         | 151,1                  |
| transport xizmatlari                                                                   | 4882,6             | 6 241,0         | 112,4                  |
| <i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>                                          | 4434,6             | 5 646,9         | 111,3                  |
| yashash va ovqatlanish xizmatlari                                                      | 7929,8             | 9 553,5         | 107,4                  |
| savdo xizmatlari                                                                       | 6035,1             | 6 961,1         | 108,9                  |
| ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar                                                  | 511,8              | 664,8           | 107,4                  |
| ta'lim sohasidagi xizmatlar                                                            | 1090,5             | 1 282,5         | 100,2                  |
| sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar                                                 | 523,7              | 652,4           | 117,1                  |
| ijara xizmatlari                                                                       | 420,0              | 556,6           | 121,8                  |
| kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar                       | 603,2              | 731,9           | 112,8                  |
| shaxsiy xizmatlar                                                                      | 1053,0             | 1 334,0         | 110,3                  |
| me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 177,5              | 188,3           | 97,5                   |
| boshqa xizmatlar                                                                       | 1014,2             | 1 334,3         | 115,5                  |

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)


2025- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **25,8 %**, transport xizmatlari **16,9 %**, moliyaviy xizmatlar **16,8 %**, savdo xizmatlari **18,8 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **3,5 %**, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,5 %** ulushni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2024- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari **27,1 %**, transport xizmatlari **16,7 %**, moliyaviy xizmatlar **13,8 %**, savdo xizmatlari **20,6 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **3,5 %**, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,7 %** ulushni tashkil etgan.

2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi **1 623,8** mlrd so'mga oshib, **9 553,5** mlrd so'mni tashkil etdi. Uning o'sishiga asosan oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari ta'sir ko'rsatib, mazkur xizmatlar ulushi **98,9 %**darajasida qayd etildi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlari hajmi **6 241,0** mlrd so'mga yetdi. O'sish sur'ati 2024- yilning mos davriga nisbatan **112,4 %**ni tashkil etdi. Umumiy bozor xizmatlari hajmidagi ulushi esa **16,9 %**darajasida qayd etildi.


### Transport xizmatlari hajmining turlari bo'yicha tarkibi



Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **90,5 %**. Transport xizmatlarining umumiy hajmida yordamchi transport faoliyati ulushi esa **5,3 %**ni tashkil etdi. Pochta va kuryerlik transporti xizmatlarining ulushi **4,2 %** darajasida qayd etildi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan tahlil qilinayotgan davrda savdo xizmatlari hajmi **926,0** mlrd so'mga oshib, **6 961,1** mlrd so'mni tashkil etdi.


### Savdo xizmatlari hajmining tarkibi



Savdo xizmatlarining umumiy hajmida chakana savdo ulushi **72,0 %**ni tashkil etdi. Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi esa **13,7 %**ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, shu jumladan ularni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, savdo xizmatlarining umumiy hajmida **14,3 %**ni tashkil etdi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **1 305,4** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu tarmoqda eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari egallab, **79,3 %**ni, o'sish sur'ati esa **121,3 %**ni tashkil etgan.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining turlari bo'yicha hajmi, mlrd so'mda



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **1 282,5** mlrd so'mni tashkil etdi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi ustun bo'lib, **59,4** %ga yetdi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmi (**664,8** mlrd so'm)da shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlarning ulushi **99,7** %darajasida qayd etildi.

2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **652,4** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan uning o'sish sur'ati **117,1** % ni tashkil etgan.

Ijara xizmatlarining umumiy hajmidagi eng katta ulushni yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlari (**79,6** %) egallaydi.

#### IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda shakllantirilgan.

##### Oylik xizmatlar hajmi quyidagi manbalar asosida shakllantiriladi:

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari hamda notijorat tashkilotlar (ro'yxat bo'yicha) tomonidan taqdim etilgan statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari va kichik korxonalar hamda mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

c) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllari asosida baholash;

d) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalari asosida baholash.



**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu** – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan yoki xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi bo'lmagan barcha xizmat ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan iste'molchilarga (jumladan, norezidentlarga) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**da ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlar bo'yicha **hisoblangan to'lovlar (QQS va aksizsiz)** hisobga olinadi.

Xizmatlar bozor xizmatlari sifatida hisobga olinishi uchun, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lishi, real oldi-sotdi obyekti bo'lishi, narxi ishlab chiquvchi sarf-xarajatlarini to'liq yoki sezilarli darajada qoplasa, bunday xizmatlar **bozor xizmatlari** sifatida hisobga olinadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar** (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), shartnoma narxlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan to'lov kunida belgilangan kurs bo'yicha qayta hisoblanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** MST (Milliy statistik tasniflagich) bo'yicha G-S seksiyalarga kiradigan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi asosida shakllantiriladi.

## V. Foydali havolalar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST)

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil (kengaytirilgan) ro'yxati

**Chiqarish uchun javobgar:**  
Xizmatlar sohasi statistikasi  
bo'limi

**Manzil:** 170100, Andijon sh.,  
Milliy tiklanish ko'chasi, 36-“A” uy,  
**Pochta:** info@andstat.uz  
Tel.: 74-224-80-00

